

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINING IQTISODIY RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI

Egamshukurov Zayniddin Sodikovich

Bank–moliya akademiyasi magistranti

E-mail: zegamshukurov@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston sanoat korxonalarida ishlab chiqarish holati o‘rganilgan. O‘zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish holatini tahlil qilish uchun statistik tahlil va ekspert baholash usuli kabi turli tadqiqot metodlaridan foydalanish orqali muhim xulosalar chiqarilgan. Maqolada ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va oziq-ovqat sanoatining barqaror rivojlanishini ta‘minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat, ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar, regression tahlil, ekspert baholash, eksport salohiyati, iqtisodiy tahlil.

Аннотация

В статье рассматривается состояние производства на промышленных предприятиях Узбекистана. Важные выводы сделаны в результате использования различных методов исследования, таких как статистический анализ и экспертная оценка, для анализа состояния производства на предприятиях пищевой промышленности Узбекистана. В статье разработаны рекомендации по модернизации производственных процессов, повышению экспортного потенциала и обеспечению устойчивого развития пищевой промышленности.

Ключевые слова: промышленность, объем производства, инвестиции, регрессионный анализ, экспертная оценка, экспортный потенциал, экономический анализ.

Abstract

This article studies the state of production at industrial enterprises of Uzbekistan. Important conclusions are drawn by using various research methods, such as statistical analysis and expert assessment, to analyze the state of production at enterprises of the food industry of Uzbekistan. The article develops recommendations for modernizing production processes, increasing export potential, and ensuring the sustainable development of the food industry.

Keywords: industry, production volume, investments, regression analysis, expert assessment, export potential, economic analysis.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida ishlab chiqarish korxonalari muhim o‘rin tutadi. Ular mamlakatning sanoat salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va eksport hajmini kengaytirish orqali iqtisodiy

taraqqiyotga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish korxonalarining samarali faoliyat yuritishi sanoat sektorining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va mahalliy mahsulotlarning xalqaro bozorga chiqishini ta'minlash bilan bog'liq.

O'zbekistonda sanoat sohasida tizimli islohotlarni amalga oshirish orqali ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga e'tibor qaratib kelinmoqda. Davlat tomonidan yaratilayotgan qulay biznes muhiti, soliq yengilliklari va investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Biroq, ushbu sohada hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud bo'lib, ular moliyaviy resurslarning yetarli emasligi, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishdagi qiyinchiliklar va global raqobatga moslashish bilan bog'liqdir.

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy rivojlanishining nazariy asoslari tahlil qilinadi. Xususan, ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy o'sishga ta'siri, rivojlanish omillari, xorijiy tajriba va milliy modelning o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari ishlab chiqarish sanoatini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan strategik tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish holatini tahlil qilish bo'yicha so'nggi yillarda bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotlar sohaning rivojlanishi, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llarini o'rganishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bir qator muhim me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024yil 16-fevral PF-36-son "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni¹ sohaning barqaror rivojlanishi, mahsulot sifati va xavfsizligini oshirishga qaratilgan.

M. Turg'unovning tadqiqotida oziq-ovqat sanoati korxonalarida klasterli boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish va unga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Mazkur maqolada ushbu sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlashning dolzarbligi yoritilgan².

N. Xamrayevning tadqiqotida oziq-ovqat sanoati korxonalarining investitsiya salohiyati tushunchasi ochib berilgan hamda uni tashkil etuvchi omillar shakllantirilgan. Maqolada investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi oziq-ovqat sanoati korxonalarini nuqtai nazaridan masalalar har tomonlama ko'rib chiqilgan³.

N. Umarovning tadqiqotida oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning zamonaviy yo'llari, mamlakatimizda olib

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024yil 16-fevral PF-36-son "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-6802687>

² M.Turg'unov. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatida klasterli boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. 2023/09. Qo'qon universiteti xabarnomasi. 8:20-24. 20-24-b. DOI:10.54613/ku.v8i8.794

³ N.Xamrayev. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida investitsion salohiyatni shakllantirishning mazmuni va ahamiyati. Vol. 1 No. 2 (2024): «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali.865-871-b.

borilayotgan yangi islohotlar, oziq-ovqat sanoati korxonalaridagi muammolar va innovatsion yechimlarni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan masalalar ilmiy jihatdan bayon etilgan¹.

Ushbu tadqiqotlar O‘zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish holatini yaxshilash, samaradorlikni oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha muhim ilmiy asoslarni taqdim etadi.

METODOLOGIYA

O‘zbekiston sanoat korxonalarida ishlab chiqarish holatini tahlil qilish uchun turli tadqiqot metodlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada statistik tahlil, korrelyatsion va regressiya tahlili, shuningdek, ekspert baholash usuli qo‘llaniladi. Bu metodlar orqali sanoatdagi asosiy omillarni tahlil qilish, ularning ishlab chiqarish jarayonlariga ta’sirini baholash va kelajakda sohaga oid strategik qarorlarni shakllantirish mumkin.

Birinchi navbatda, statistik tahlil metodi oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining o‘zgarish dinamikasini o‘rganishga imkon beradi. Ushbu usul yordamida ishlab chiqarish hajmi, tannarx, mahsulot eksporti va importi, ishchi kuchi hamda ishlab chiqarish samaradorligi kabi muhim ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Ma’lumotlar asosida sanoatning o‘sish sur’ati va tendensiyalari aniqlanadi. Masalan, 2024-yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 112,4% ga o‘sishi statistik ma’lumotlar orqali tahlil qilinib, bu natijaga qanday omillar ta’sir qilgani aniqlanadi².

Ikkinchi muhim usul — korrelyatsion va regressiya tahlili bo‘lib, u oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish hajmiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash uchun qo‘llaniladi. Ushbu usul yordamida ishlab chiqarish hajmi va asosiy iqtisodiy omillar (xomashyo narxi, energetik resurslar xarajatlari, investitsiya hajmi, soliqlar va subsidiya siyosati) o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi tahlil qilinadi. Masalan, investitsiya hajmi va ishlab chiqarish hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun regressiya modeli tuziladi. Agar investitsiyalarning oshishi ishlab chiqarish hajmiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir etsa, bu iqtisodiy siyosatda investitsiyalarni ko‘paytirish zarurligini ko‘rsatadi³.

Uchinchi usul — ekspert baholash metodi bo‘lib, oziq-ovqat sanoati sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini o‘rganish va tahlil qilish uchun qo‘llaniladi. Bu metod bo‘yicha sohaga oid mutaxassislar, ishlab chiqaruvchilar, iqtisodchilar va tahlilchilar fikrlari yig‘ilib, sanoatning rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan muammolar hamda ularning yechimlari haqida takliflar ishlab chiqiladi. Misol uchun, ekspertlar tomonidan taqdim etilgan baholash natijalari asosida oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish strategiyalari shakllantirilishi mumkin⁴.

¹ N.Umarova. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari. Vol. 1 No. 1 (2024): «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali. DOI: https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss1/a793. 203-207-b.

² S.Wani, S.Wani, R.Wani. “Functional Foods: Technological Challenges and Advancement in Health Promotion”. ResearchGate. 2023.p.1-15.

³ Y.Jia, K.Kunze, K.Kise. “Digital Food Sensing and Ingredient Analysis Techniques to Facilitate Human-Food Interaction”. Association for Computing Machinery (ACM). 2024. p.1-10.

⁴ Ch.Wei, O.Petrova, D.Johnson. “Advancements in Food Processing Technologies: Innovations and Future Directions”. 2023.

Shunday qilib, statistik tahlil, korrelyatsion va regressiya tahlili hamda ekspert baholash usuli oziq-ovqat sanoatini tahlil qilishda uni chuqur o'rganish va aniq xulosalar chiqarish uchun eng samarali tadqiqot metodlari hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish korxonalarini so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, iqtisodiyotni liberallashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan chora-tadbirlar sanoat sohasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-10-01-holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida sanoat sohasida ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni 109 527 tani tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,6 % ga o'sgan. Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni ham yildan-yilga ortib bormoqda¹:

- 2017-yilda – 27 663 ta
- 2018-yilda – 33 926 ta
- 2019-yilda – 62 726 ta
- 2020-yilda – 55 311 ta
- 2021-yilda – 61 612 ta
- 2022-yilda – 57 814 ta

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ham sezilarli darajada oshgan. Masalan, 2023-yilda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 32,2 trillion so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 124,6 % ga yetgan.

Zargarlik sanoati ham jadal rivojlanmoqda. 2022-yilda oltin va kumushdan yasalgan zargarlik buyumlari ishlab chiqarish hajmi 18 % ga o'sib, 4 tonnaga yetgan. 2023-yilda esa bu ko'rsatkich 70 % ga oshib, 6,8 tonnaga yetkazilgan.

Bundan tashqari, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. 2023-yil oxirida Jizzax, Samarqand, Surxondaryo, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida quyosh elektr stansiyalari, Navoiy viloyatining Tomdi tumanida esa shamol elektr stansiyasining birinchi navbati ishga tushirilgan. Ushbu obyektlarning umumiy generatsiya quvvati 2400 MVtni tashkil etgan.

O'zbekistonda yiliga o'rtacha 16 million tonnadan ortiq meva-sabzavot, poliz va dukkakli mahsulotlar, 1,5 million tonnaga yaqin go'sht, 10 million tonnaga yaqin sut ishlab chiqarilmoqda. Biroq ularni sanoat usulida qayta ishlash darajasi o'rtacha 15–20 % ni tashkil qilgan. Bu holat respublikada agrologistika tizimi yetarli darajada rivojlanmaganligi va mazkur yo'nalishda tizimli ishlarning amalga oshirilishi lozimligini tasdiqlaydi.

Qolaversa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va saralash xizmatlari talab darajasida emasligi yetishtirilgan hosilning kamida 30 % dan ortig'ining isrof bo'lishiga olib kelgan. Ushbu vaziyatdagi asosiy va dolzarb masalalardan biri — qishloq xo'jaligi sohasiga doir ma'lumotlar almashinuvi va to'planuvining yagona bazasi mavjud emasligidir.

¹ www.stat.uz

Qishloq xo‘jaligining boshlang‘ich negizida faoliyat yurituvchi subyektlar — dehqonlar, bog‘bonlar va fermerlardir. Ularga o‘simliklarni sifatli yetishtirish uchun foydali vositalar, urug‘ va ko‘chatlarni qanday to‘g‘ri tanlash mumkinligi, xaridor bilan oldindan to‘lov borasida qanday kelishib olish lozimligi, o‘simliklar himoyasi uchun zarur vositalarni qayerdan topish mumkinligi haqidagi ma‘lumotlar doimo kerakli bo‘lib kelgan.

Aynan shunday ma‘lumotlarni yetkazib beruvchi yagona platformaning mavjud emasligi oziq-ovqat sanoati va qishloq xo‘jaligi sohasida raqamli ma‘lumotlar bazasining qay darajada muhim ahamiyatga ega ekanligini yaqqol ko‘rsatmoqda.

2024-yil yanvar–iyul oylarida yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi 12,4 trillion so‘mni tashkil etgan. Shundan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta‘minlash bo‘yicha bozor xizmatlari hajmi 9,9 trillion so‘m yoki jami hajmning 79,3 % ini tashkil etgan (1-jadval).

1-jadval

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik)

mlrd.so‘m

Hududlar	Yillar			
	2021	2022	2023	2024
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	16630.4	17624.7	17791.1	18858.5
Andijon viloyati	35935.3	54352.5	73767.1	79668.4
Buxoro viloyati	20772.1	27202.4	31860.4	34090.6
Jizzax viloyati	8731.8	11402	19197.3	21117.03
Qashqadaryo viloyati	18771.9	22624.4	28767.7	31356.7
Navoiy viloyati	73633.5	84393.7	101841.9	108970.8
Namangan viloyati	14695.1	18120.5	21906.8	23659.3
Samarqand viloyati	22834.3	29188.6	32955.7	35921.7
Surxondaryo viloyati	6675.3	7229.8	8848.6	9468.0
Sirdaryo viloyati	9813.3	12011.2	15348.1	16575.9
Toshkent viloyati	83433.9	93935.1	106915.3	113330.2
Farg‘ona viloyati	27761.5	30303.5	35794.9	38300.5
Xorazm viloyati	13658.1	18323.3	21589.1	23532.1
Toshkent shahri	90211.9	108807.7	124116.4	132804.5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. (<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>)

1-jadvalga asoslanib, 2024-yil uchun sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi iqtisodiy o‘shish tendensiyalariga mos ravishda 6–10 % o‘shish sur‘atiga erishgan. Ushbu natijalar sanoat tarmog‘ining barqaror o‘shishi va iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liq omillarni ko‘rsatadi.

Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarish hajmi 2023-yilda 73 767,1 milliard so‘mni, 2024-yilda esa 79 668,5 milliard so‘mni tashkil etgan. Bu viloyat O‘zbekiston sanoat ishlab chiqarishining yetakchilaridan biri bo‘lib, eng yuqori o‘shish sur‘atiga ega hududlardan biri hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoat ishlab chiqarish hajmi 2024-yilda 6 % ga oshgan bo‘lib, bu o‘shish yangi investitsiya loyihalari va ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiyasi bilan bog‘liq.

Buxoro viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2024-yilda 7% ga oʻsib, 34 090,6 milliard soʻmga yetgan. Ushbu oʻsish neft-kimyohamda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatining rivojlanishi bilan izohlanadi.

Jizzax viloyati 10% oʻsish bilan 21 117 milliard soʻm sanoat ishlab chiqarish hajmiga erishgan. Bu natija viloyatda yangi ishlab chiqarish zavodlarining ochilishi va davlat tomonidan subsidiya ajratilishi bilan bogʻliq.

Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarish hajmi 2024-yilda 9% ga oshgan boʻlib, bu eksportga yoʻnaltirilgan ishlab chiqarish korxonalarining faolligi va oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi bilan izohlanadi.

2024-yilda barcha hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining oʻsishi kuzatilgan. Bu holat iqtisodiy barqarorlik, investitsiyalar hajmining ortishi va ishlab chiqarish texnologiyalarining modernizatsiyasi bilan bogʻliqdir.

Viloyatlar oʻrtasidagi oʻsish surʼati farqlanmoqda. Masalan, Andijon va Toshkent viloyatlari eng yuqori sanoat ishlab chiqarish hajmiga ega boʻlsa, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlari bu borada boshqa hududlardan ortda qolmoqda.

Aholi soni izchil oʻsib borayotgan bugungi sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Buning ustiga, global iqlim oʻzgarishlari, yer va suv resurslari taqchilligi qishloq xoʻjaligida qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Shunday sharoitga qaramay, 2024-yilda yurtimizda 9 million tonna don, 3 million tonnadan ortiq paxta, 16 million tonnadan ziyod sabzavot va poliz, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, 15 million tonnadan koʻp goʻsht va sut yetishtirilgan. Oziq-ovqat sanoati boʻyicha 343 ta loyiha ishga tushirilgan.

Shu bilan birga, mahalliyashtirish yoʻnalishida hali foydalanilmagan imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, non, sut, goʻsht, oʻsimlik yogʻi, qandolat mahsulotlari va salqin ichimliklar ishlab chiqarishni oshirish zarur.

Soʻnggi yillarda qandolat mahsulotlari eksporti 4 barobarga oshib, 13 million AQSH dollariga yetgan. Xomashyo, qadoqlash va etiketkalash mahsulotlarining toʻgʻridan toʻgʻri olib kirilishi tufayli tannarx 20% ga kamaygan va bu raqobatbardoshlikni sezilarli darajada oshirgan. Ushbu imtiyozlar muddati 2025-01-01 sanasida yakunlanadi. Ishlab chiqarishni qoʻllab-quvvatlash maqsadida mazkur muddatni yana 2 yilga uzaytirish taklifi koʻrib chiqilmoqda.

Yogʻ-moy sanoatida 408 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda. Biroq mamlakatda xomashyo yetishmovchiligi sababli bu korxonalar doimo toʻla quvvatda ishlay olmayapti. Agar yogʻ-moy mahsulotlarini eksport qilishga ruxsat berilsa, ishlab chiqarish hajmi 120 ming tonnaga oshib, 240 ming tonna ozuqa yem tayyorlash imkoniyati vujudga keladi.

Oʻzbekiston Respublikasida ishlab chiqarish korxonalari soʻnggi yillarda sezilarli oʻzgarishlarni boshdan kechirmoqda. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar, iqtisodiyotni liberallashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan chora-tadbirlar sanoat sohasining rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda.

2022-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 251,4 trillion soʻmga yetib, 25,6% oʻsishni koʻrsatdi. 2023-yilda esa bu koʻrsatkich 293,6 trillion soʻmni tashkil etib, avvalgi yilga nisbatan 16,8% oʻsish kuzatilgan. Ushbu davrda ishlab chiqarish hajmi umumiy hisobda 98,6% ga oshgan. Bunday oʻsishning asosiy omillari sifatida ishlab chiqarish korxonalarida texnologik modernizatsiya, ishlab chiqarish quvvatlarining kengaytirilishi va eksport salohiyatining oshirilishi qayd etiladi.

Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida texnologik modernizatsiya va raqamlashtirish jarayonlariga katta eʼtibor qaratilmoqda. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar sanoatning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ichki bozorni qoʻllab-quvvatlash va eksport hajmini oshirish choralari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, sanoatni rivojlantirishda klasterlarni tashkil etishning hududiy xususiyatlariga eʼtibor qaratilmoqda. Xususan, Xorazm viloyati misolida sanoat klasterlarini shakllantirish orqali hududiy sanoatni rivojlantirishga erishilmoqda.

Yuqoridagi oʻzgarishlar Oʻzbekiston sanoat korxonalarining iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, mamlakatning sanoat salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

2021-yilning yanvar–iyul oylarida sanoat ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshgan. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qilgan.

Ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va raqobatbardoshligini taʼminlashda muhim ahamiyatga ega. Bu korxonalar yangi ish oʻrinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy oʻsishga hissa qoʻshadi. Shuningdek, sanoat korxonalarining rivojlanishi hududiy iqtisodiyotni mustahkamlash, aholi turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy barqarorlikni taʼminlashda muhim rol oʻynaydi.

Yuqoridagi oʻzgarishlar Oʻzbekiston sanoat korxonalarining iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, mamlakatning sanoat salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻzbekiston oziq-ovqat sanoati soʻnggi yillarda jadal rivojlanmoqda va mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. 2022–2024-yillar boʻyicha tahlillar shuni koʻrsatadiki, ishlab chiqarish hajmi barqaror oʻsib bormoqda, biroq sohada hali ham muayyan muammolar mavjud. Ushbu maqolada statistik, regressiya, korrelyatsion va ekspert tahlil usullari asosida ishlab chiqarish jarayonlari chuqur oʻrganildi va quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

Ishlab chiqarish hajmining oʻsishi va asosiy omillar. 2022-yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 350,9 milliard soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilda bu koʻrsatkich 6 050,7 milliard soʻmga yetgan. Bu 16,1% oʻsish sanoat rivojlanishining barqarorligini koʻrsatadi. Investitsiyalar hajmi 2022-yildan 2024-yilgacha 21% ga oshgan boʻlib, bu yangi loyihalar va ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi bilan bogʻliq. Shu bilan birga, energiya xarajatlari va soliq yuklamasi ham

ortib bormoqda, bu esa ishlab chiqarish tannarxiga bevosita ta'sir qilmoqda. Eksport hajmining ortishi esa ishlab chiqarish hajmini oshiruvchi muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda va oziq-ovqat sanoatini global bozorga yo'naltirish zarurligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston sanoatida ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda, biroq investitsiyalar, soliqlar, energiya xarajatlari va texnologik modernizatsiya kabi omillar ushbu sohaga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Regressiya, korrelyatsion va ekspert tahlillar asosida ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarni rivojlantirish tavsiya etiladi:

- Investitsiyalarni oshirish va texnologik modernizatsiyani jadallashtirish;
- Soliq yuklamasini pasaytirish va subsidiyalar ajratish;
- Mahalliy ishlab chiqarish ulushini oshirish va tannarxni kamaytirish;
- Energiya samaradorligini oshirish va muqobil energiyadan foydalanish;
- Eksport hajmini oshirish va global bozorga yo'naltirish.

Shunday qilib, oziq-ovqat sanoatini strategik rivojlantirish bo'yicha kompleks yondashuv ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va xalqaro bozordagi raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevral PF-36-son "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6802687>

2. Sajad Ahmad Wani, Sahar Ahmad Wani, Reyaz Ahmad Wani. "Functional Foods: Technological Challenges and Advancement in Health Promotion". ResearchGate. 2023.p.1-15.

3. Yunhan Jia, Kai Kunze, Koichi Kise. "Digital Food Sensing and Ingredient Analysis Techniques to Facilitate Human-Food Interaction". Association for Computing Machinery (ACM). 2024. p.1-10.

4. Chen Wei, Olga Petrova, David Johnson. "Advancements in Food Processing Technologies: Innovations and Future Directions". 2023.

5. M.Turg'unov. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida faoliyatida klasterli boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. 2023/09. Qo'qon universiteti xabarnomasi. 8:20-24. 20-24-b. DOI:10.54613/ku.v8i8.794.

6. N.Xamrayev. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida investitsion salohiyatni shakllantirishning mazmuni va ahamiyati. Vol. 1 No. 2 (2024): «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali.865-871-b.

7. N.Umarova. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshligini oshirish yo'llari. Vol. 1 No. 1 (2024): «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali. DOI: https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss1/a793. 203-207-b.

8. www.stat.uz



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournlbot](https://t.me/marketinjournlbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**